

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**"HAYVONLAR ANATOMIYASI, GISTOLOGIYA VA PATOLOGIK
ANATOMIYA" KAFEDRASI**

**60840300-Veterinariya diagnostikasi va laboratoriya ishlari ta'lif yo'nalishi
2-bosqich 201, 202-guruh talabalari uchun**

**SITOLOGIYA, GISTOLOGIYA VA EMBRIOLOGIYA
fanidan**

**"MUSKUL TO'QIMALAR SISTEMASI GISTOMORFOLOGIK
TUZILISHI"**

Mavzusidagi ochiq ma'ruza mashg'uloti ishlanmasi

Samarqand- 2023

Tuzuvchi:

Sh.Z.Doniyorov – “Hayvonlar anatomiysi, gistologiya va patologik anatomiya” kafedrasi assistenti

Taqrizchilar:

M.Allamurodova – Viloyat hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi direktori

B.A.Kuliyev – Hayvonlar anatomiysi, gistologiya va patologik anatomiya kafedrasi dotsenti

“Muskul to‘qimalar sistemasi gistogramorfologik tuzilishi” mavzusidagi ma’ruza mashg‘ulotining texnologik modeli

O‘quv soati: 80 daqiqa	Talabalar soni: 51
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Salomlashish, yo‘qlama, o‘tilgan mavzu yuzasidan qisqacha takrorlash, yangi mavzuni tushuntirish va yangi mavzuni yuzasidan savollarga javob berish.
Ma’ruza mashg‘ulotining rejalari	<ol style="list-style-type: none"> 1. Muskul to‘qimalarining umumiyligini, xarakteristikasi va klassifikatsiyasi. 2. Silliq muskul to‘qimasi. 3. Ko‘ndalang-targ‘il muskul to‘qimasi. 4. Yurakning ko‘ndalang-targ‘il muskul to‘qimasi.
<p><i>Ma’ruza mashg‘ulotining maqsadi:</i> Muskul to‘qimalar sistemasi gistogramorfologik tuzilishini, muskullarning to‘qimalarining umumiyligini, xarakteristikasi va klassifikatsiyasi o‘rganish. Silliq va ko‘ndalang-targ‘il hamda yurakning ko‘ndalang-targ‘il muskul to‘qimalarining gistogramorfologik tuzilishidagi farqlarni bilib olish.</p>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O‘quv faoliyati natijalari:</i>
<ol style="list-style-type: none"> 1. Muskul to‘qimalarining umumiyligini, xarakteristikasi va klassifikatsiyasi haqida ma’lumot berish. 2. Silliq muskul to‘qimasi haqida ma’lumot beradi. 3. Ko‘ndalang-targ‘il muskul to‘qimasi to‘g‘risida ma’lumotlar beradi. 4. Yurakning ko‘ndalang-targ‘il muskul to‘qimasi haqida ma’lumot beradi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Muskul to‘qimalarining umumiyligini, xarakteristikasi va klassifikatsiyasi haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. 2. Silliq muskul to‘qimasi haqida ma’lumot oladi. 3. Ko‘ndalang-targ‘il muskul to‘qimasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘rganadi. 4. Yurakning ko‘ndalang-targ‘il muskul to‘qimasi haqida ma’lumot ma’lumot oladi.
<i>Ta’lim metodlari</i>	Tezkor savol-javob, suhbat, aqliy hujum.
<i>Ta’lim vositalari</i>	Ma’ruza mashg‘uloti ishlanmalari, kompyuter rasmlari, videoproyektor, slaydlar, ko‘rgazmali jihozlar, maket.
<i>Ta’lim shakllari</i>	Jamoaviy.
<i>O‘qitish shart- sharoiti</i>	Maxsus texnik vositalardan foydalanis.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki so‘rov, savol-javob, test.

**“Muskul to‘qimalar sistemasi gistogramorfologik tuzilishi” mavzusidagi amaliy
mashg‘ulotning texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchilar
1 - bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish (10 daq.)	1.2. Ma’ruza mashg‘ulotining mavzusi, maqsadi va rejasini ma’lum qiladi, mashg‘ulotdan kutilayotgan o‘quv natijalari bilan tanishtiradi.	1.1. Tinglaydi va yozadilar.
2 - bosqich. Asosiy (60 daq.)	<p>2.1. Avvalgi mavzuni esga solish, mavzu bo‘yicha muskul to‘qimalar sistemasi gistogramorfologik tuzilishi haqida nazariy bilimlarni berish.</p> <p>Ma’ruza mashg‘uloti o‘qib eshittirilgandan so‘ng talabalar nimalarni o‘rganganligini aniqlash maqsadida blis-so‘rov o‘tkazadi</p> <p>2.2. Talabalarni e’tiborini jalb etish uchun turli muskul to‘qimalarining gistogramorfologik tuzilishidagi farqlar xilma-xil rasmlar orqali ko‘rsatiladi.</p>	<p>2.1. Eslaydi, savollarga javob beradi. Yozib boradilar.</p> <p>2.3. Eshitadi, o‘ylaydi, yozadi. Savollar berilib, asosiy joylari yozib olinadi.</p>
3 - bosqich. Yakuniy (10 daq.)	<p>3.1. Mavzuga yakun yasaydi, umumiylar xulosalarni shakllantiradi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag‘batlantiradi. Ma’ruza mashg‘uloti bo‘yicha yakuniy xulosa qilinadi. Olingan bilimlarni ahamiyatini ochib beradi.</p> <p>3.2. Talabalar savoliga javob beradi, uyga topshiriq beriladi va foydalanilagen adabiyotlar ro‘yxati beriladi.</p>	<p>3.1. Tinglaydilar, xulosa chiqaradilar.</p> <p>3.3. Tushunmagan qismidan savol beradi. Topshiriqni yozadilar.</p>

Mavzu: Muskul to‘qimalar sistemasi gistogramorfologik tuzilishi

Darsning maqsadi: Muskul to‘qimalar sistemasi gistogramorfologik tuzilishini, muskullarning to‘qimalarining umumiy xarakteristikasi va klassifikatsiyasi o‘rganish. Silliq va ko‘ndalang-targ‘il hamda yurakning ko‘ndalang-targ‘il muskul to‘qimalarining gistogramorfologik tuzilishidagi farqlarni bilib olish.


Tayanch iboralar: *muskul, to ‘qima, sistema, gistogramorfologiya, xarakteristika, klassifikatsiya, silliq, ko ‘ndalang targ ‘il, yurak . ko ‘ndalang targ ‘il.*

Ko‘rgazmali qurollar: rasm, slaydlar va videoproyektor.

Darsning mazmuni: Muskul to‘qimasi hayvonlar va odam organizmini harakatga kelishini ta’minlaydi. Muskullarning tuzilishi ularning bajarayotgan funktsiyasiga moslashgan, ya’ni ularning shakli cho‘ziq, uchlari tayanch tuzilmalarga tutashgandir.

Tuzilishi va bajarayotgan funktsiyasiga ko‘ra **silliq**, **ko‘ndalang-targ‘il (skelet)**, **yurak muskuli** va ba’zi a’zolarda uchrovchi maxsus muskul to‘qimasi farq qilinadi. Maxsus muskul to‘qimasi kelib chiqishi, tuzilishi va vazifasiga ko‘ra turlichadir. Ko‘ndalang-targ‘il yurak muskuli hamda maxsus muskul to‘qima - *mioepitelial* hujayralar (ter, sut va so‘lak bezlarida uchrovchi hujayralar), ko‘zning silliar va qorachig‘ muskullari xususiy gistologiyaning tegishli boblarida keltirilgan.


Muskul to‘qimalar turlari		Kelib chiqishi
I. Ko‘ndalang-targ‘il (tolali) muskul to‘qimasi	1. Skelet muskul to‘qimasi	Miotomdan
	2. Yurak muskul to‘qimasi	Splanxnotom visseral varag‘idagi mioepikardial plastinkadan.
II. (hujayrali) Silliq muskul to‘qima	1. Tomirlar va ichki a’zolarning silliq muskul to‘qimasi.	Splanxnotom mezenximasida
	2. Neyral tabiatli muskul to‘qimasi (ko‘z kamalak pardasining muskullar) 3. Mioepitelial muskul hujayrasi	Ko‘z kosasi devoridagi neyral murtak hujayra-laridan Ekzokrin bezlarda



Silliq muskul to‘qimasi hujayra tuzilishiga ega. Silliq muskul ko‘pgina ichki organlar - me’da-ichak yo‘li, tanosil organlari, tomirlar devorining shakllanishida qatnashadi. Silliq muskul tuzilishi hamda funksiyasi bo‘yicha ko‘ndalang-targ‘il muskuldan qancha farq qiladi. Silliq muskullar vegetativ nerv sistemasi tomonidan innervatsiya qilinadi va shu sababli kishi ixtnyoriga bo‘ysunmaydi. Yuqorida qayd qilinganidek, silliq muskul to‘qimasi hujayra tuzilishiga ega bo‘lib, cho‘ziq, duksimon va tarmoqlangan bo‘ladi. Hujayraning o‘lchamlari turlichcha bo‘ladi, ya’ni uzunligi 50-250 mkm, yadro sathining maksimal diametri 5-20 mkm. To‘qimada bir-biriga yondoshib yotgan hujayralar qatlamlar hosil qiladi.

Silliq muskul hujayralari sirtdan *sarkolemma* bilan qoplangan, unda qalinligi taxminan 7,5 nm ga teng plazmatik membrana va tashqi bazal membrana farq qilinadi.

Hujayra sitoplazmasida yadro, umumiyligi organellalar va miofibrillalar joylashadi.



Silliq muskul to‘qimasi.


Bo‘yalish: gem-eozin.

A: bo‘ylama kesimi, **B:** ko‘ndalang kesimi.

1 – silliq miositlar; 1.1 – sarkolemma; 1.2 – sarkoplazma; 1.3 – yadro; 2 – silliq miositlari orasidagi siyrak tolali biriktiruvchi to‘qimasi, 2.1 – qon tomirlar.


Yadro va organellalar hujayraning *trofik apparatini* tashkil etadi. Silliq muskul hujayrasining yadrosi uning markazida joylashib, cho‘ziq oval yoki tayoqchasimon shaklga ega. Yadroning shakli qissarish paytida o‘zgaradi. Unda ko‘p hollarda ikkita yoki undan ko‘proq yadrocha bo‘ladi. muskul hujayrasida endoplazmatik to‘r sust rivojlangan. Mitoxondriyalar kichik, shakli cho‘ziq, oz miqdorda bo‘lib, sitoplazmada tarqoq joylashadi. Ammo yadro yonida ularning soni ko‘proq bo‘lishi mumkin.

Miofibrillalar muskul hujayrasining *qisqaruvchi apparatini* tashkil etishi sababli ular eng muhim ahamiyatga ega. Miofibrillalar skelet mushagiga xos bo‘lgan ko‘ndalang-targ‘illikka ega emas va oddiy mikroskopda bir jinsli ipchalar shaklida ko‘rinadi. Hujayra sitoplazmasida bo‘ylama joylashgan submikroskopik *protofibrillalar mavjud* bo‘lib, ular tutamlar hosil qilmaydi. Prototibrillalar yoki mikrofilamentlarning ikki turi farqlanadi: **aktin** va **miozin**. Miozin prototibrillalar diametri 17 nm ga teng bo‘lib, yo‘g‘on prototibrillalardir. Aktin mikrofilamentlar nozik bo‘lib qalinligi 7 nm ga teng.



Silliq muskul to‘qimasi. Strelkalar bilan muskul hujayralarining yadrolari ko‘rsatilgan.

Ko‘ndalang- targ‘il muskul to‘qimasi skelet muskullarini, ovqat hazm qilish traktining ba’zi a’zolari (til, tanglay, qizilo‘ngach bir qismi) muskullarini, ko‘z muskullarini, mimik va nafas olish muskullarini hosil qiladi. Yurak mushagi ko‘ndalang-targil muskul to‘qimasining maxsus turi hisoblanadi.



Skelet mushagi (ko‘ndalang kesimi).

Bo‘yalish: gem.-eozin


- 1 - epimiziy; 2 – perimiziy;
- 2.1 – qon tomirlar, 3 – muskul tolalarining tutamlari:
- 3.1 – muskul tolalar,
- 3.2 – endomiziy, 3.2.1 – qon tomirlar.

Ko‘ndalang-targ‘il muskul to‘qimasi *tolalardan* iborat bo‘lib, ularning uzunligi bir necha santimetrgacha (12,5 sm), diametri 100 mkm gacha yetishi mumkin. Shu sababli ko‘ndalang-targ‘il muskul tolalari *simplastik tuzilmalar* deb ataladi. Ular uzun silindrik tuzilmalar bo‘lib, sirdan yaxshi ifodalangan parda - **sarkolemma** bilan qoplangan. muskul tolalarining yadrolari oval shaklli, xromatini kam, pereferiyada, sarkolemma ostida joylashadi. muskul tolalari mitoxondriyalarga boy bo‘lib, ular miofibrillalar orasida tizilib yotadi.

Donador-endoplazmatik to‘r sust rivojlangan, yadro atrofida joylashadi. Sust rivojlangan plastinkasimon kompleks ham shu yerda yotadi.

Miofibrillalar tolaning qisqarishini ta’minlovchi tuzilmalardir. Bu ipsimon tuzilmalarning qalinligi 2 mikron keladi. Ko‘ndalang-targ‘il muskulning miofibrillalari silliq muskuldan farq qilib, ko‘ndalangiga taram-taram bo‘lib bo‘yaladi.

Miofibrillalarda A va I disklar farq qilinadi. A disklar har xil bo‘yoqlar bilan yaxshi bo‘yaladi. *Anizotrop-A* disklar ikki xil nur sindirish (anizotropiya) xuso‘siyatiga ega. I disklar anizotropiya xususiyatiga ega emas va shu sababli ularni *izotrop disklar* deyiladi.




Skelet muskul to‘qimasi.

Til preparati. Bo‘yalish: Temir gemitoksilin. **A:** buylama kesma; **B:** ko‘ndalang kesma; 1 – muskul tolalari: 1.1 – bazal membrana bilan o‘ralgan sarkolemma; 1.2 – sarkoplazma, 1.2.1 – miofibrillalar; 1.2.2 – Kongeym maydonlari; 1.3 – miosimplast va miosatellitositlar yadrosi; 2 – endomiziy; 3 – muskul tutamlar orasida siyrak tolali biriktiruvchi to‘qimalar qatlami; 3.1 – qon tomirlar; 3.2 – yog“ hujayralari.


Ko‘ndalang-targ‘il muskulning organ sifatida tuzilishi. muskulning organ sifatida shakllanishida biriktiruvchi to‘qima ham ishtirok etadi. U muskulni parda shaklida o‘raydi va qon tomirlar bilan bиргаликда muskulning ichiga ham o‘sib kiradi. muskulni sirdan o‘rab turuvchi biriktiruvchi to‘qima pardasi epimiziy yoki fasspya deb ataladi. muskul ichidagi biriktiruvchi to‘qima qatlamlari muskul tolalarini alohida tutamlarga bo‘lib, ichki perimiziy deb ataladi.

Biriktiruvchi to‘qima tolalari ham bir muskul tolasini nafis to‘r shaklida o‘raydi. Bu nozik to‘r *endomiziy* nomini olgan. Ichki perimiziy tarkibida yo‘naluvchi qon tomirlar tarmoqlanib, har bir muskul tolasini o‘rovchi kapillyarlar to‘rini hosil qiladi. muskul tolalariga payning kollagen tolalari tutashadi. Bu yerda muskul tolalarining uchlari barmoqsimon o‘sintalar hosil qiladi va ular orasiga kollagen tolalar o‘sib kiradi. muskul to‘qimasida shu to‘qima uchun xos bo‘lgan mioglobin pigmenti joylashadi. Mioglobin ikki qismdan - *gem* (temir) va oqsil komponenti *globindan* iborat. Mioglobin muskul fiziolo-giyasida katta rol o‘ynaydi. Uning asosiy vazifasi o‘zida kislorod saqlash xususiyatidir.




Yurakning ko‘ndalang-targ‘il muskul to‘qimasi. Ko‘ndalang-targ‘il muskul to‘qimasi yurak miokard qavatida joylashadi. Bu muskul to‘qima skelet ko‘ndalang-targ‘il muskuldan farqli ravishda ko‘ndalang-targ‘il muskul tolalaridan emas, balki yurak muskul hujayralaridan - *miotsitlardan* tashkil topgan. Bu hujayralar faqat yurakda uchragani uchun *kardiomiotsitlar* deb yuritiladi. Hozirgi vaqtda 3 xil kardiomiotsitlarni farq qilish mumkin.

1. Qisqaruvchi - *tipik*
2. Impuls o‘tkazuvchi *atipik*
3. Sekretor.



Qisqaruvchi kardiomiotsitlar uzunligi 50-120 mkm, kengligi 15-20 mkm, silindr shaklidagi hujayralardir. Ular *oraliq plastinkalar* orqali o'zaro birlashib zanjirsimon (tizmasimon) tuzilmalar hosil qiladi. Kardiomiotsit markazida bir yoki ikki oval yoki cho'zinchoq shakldagi yadro joy-lashadi. Miofibrillalar yadro atrofida joylashib, ular orasida mitoxondriyalar ko'p. Silliq endoplazmatik to'r va T-sistema yaxshi rivojlangai. Donador endoplazmatik to'r kuchsiz rivojlangan. Bazal membrana oraliq plastinkalar sohasida bo'lmay, kardiomiotsitlarni faqat yon tarafdan o'rab turadi. Oraliq plastinkalar ikki hujayraning plazmatik membranalari orasida joylashib, elektron mikroskop ostida zinapoyasimon joylashganini ko'ramiz.



A - Yurak qorinchasidagi tipik kardiomiotsitlar.


- 1 - basal membrana; 2 – sarkolemma;
- 3 – sarkoplazma: 3.1 – miofibrillalar,
- 3.2 - mitoxondriyalar, 3.3 – lipid tomchilar;
- 4 - yadro; 5 – oraliq disk

Yurakdagi qo'zg'alishni o'tkazuvchi muskul to'qimasi (Purkinye tolalari yoki **atipik kardiomiotsitlar**) ham muskul hujayralari - kardiomiotsitlardan tuzilgan bo'lib, ular qisqaruvchi kardiomiotsitlardan yirikroq (uzunligi 100 mkm, kengligi 50 mkm), qo'zg'alishni peysmeker hujayralaridan qisqaruvchi muskul tolalariga o'tkazadi.


Peysmeker (ritm boshqaruvchi) hujayralar atipik muskulning alohida turi bo'lib, u vegetativ nerv sistemasining tolalari bilan innervatsiya qilingan.

Yurak tizimidagi o‘tkazuvchi kardiomiosit (Purkine tolalari subendokardial to‘ridan)

1 - bazal membranasi; 2 - sarkolemma; 3 - sarkoplazma: 3.1- miofibrillalar, 3.2 - mitoxondriyalar, 3.3 – glikogen donachalar, 3.4 – oraliq filamentlar; 4 - yadrolari; 5 - oraliq disk.



So‘nggi vaqtarda yurakning bo‘lmacha kardiomiotsitlarida maxsus glikoproteid tutuvchi **sekretor** granulalar borligi aniqlandi. Shu bilan birga bu hujayralar qon bosimi va ionlar munosabatini boshqaruvchi *natriy uretik faktor sekretsiya* qilishi, bu hujayralar ma’lum endokrin funksiyaga ega ekanligini ko‘rsatadi.



B – bo‘lmachalardagi endokrin kardiomiosit

1 – basal membrana,
2 – sarkolemma,
3 – sarkoplazma:
3.1 – miofibrillalar,
3.2 – sekretor donachalar, 3.3 – mitoxondriyalar;
4 – yadro;
5 – oraliq disk

Yurak muskul to‘qimasining taraqqiyoti va regeneratsiyasi. Yurak muskul to‘qimasi segmentlanmagan mezodermadan, aniqrog‘i, splanxnotomning vistseral varag‘idan rivojlanadi. Bu varaqdan mioepikardial plastinka hosil bo‘lib, uning hujayralaridan miokard va epikard hosil bo‘ladi. Mioepikardial plastinkaning mezenxima hujayralari mioblast hujayralarga differensiallashib kardiomiotsit hujayralarni hosil qiladi va so‘ngra plastinkalar orqali birlashadi.

Nazorat uchun savollar

1. Qanday muskul o‘qimalarini bilasiz?
2. Silliq tolali muskul to‘qimasi qanday tuzulgan?
3. Ko‘ndalang-targ‘il muskul to‘qimasi qanday tuzulgan?
4. Yurak muskul to‘qimasi tuzulishi jihatdan qanday tuzilgan?
5. Muskul to‘qimasi qanday toladan tuzilgan?

Nazorat uchun testlar.

1. Asosiy vazifasi qisqarish bo‘lgan, struktur funksional elementlari tarkibida miofibrillalar saqllovchi to‘qima?
 - A. muskul to‘qima
 - B. nerv to‘qima
 - C. epiteliy
 - D. mezenxima
2. Muskul to‘qimalarning asosiy struktur, funksional elementlari?
 - A. Silliq, miozit, muskul tola (miosimplast), kardiomiosit
 - B. kollagen va elastik tolalar
 - C. silliq miosit va kardiomosit
 - D. muskul va kollagen tolalar
3. Silliq miositning shakli qanday bo‘ladi?
 - A. duksimon (urchuqsimon)
 - B. silindrsimon
 - C. yulduzsimon
 - D. sharsimon
4. Sillik miositlarning uzunligi nimaga teng?
 - A. 20- 500 mkm
 - B. 20- 500mm
 - C. 20- 500A
 - D. 20- 500nm
5. Muskul tola (miosimplast)ning uzunligi nimaga teng
 - A. 12,5 sm
 - B. 12,5 nm
 - C. 12,5A
 - D. 12,5 mkm

6. Muskul tolaning regeniratsiyasi nima xisobiga amalga oshadi
- A. miosatillitositning ko‘payishi
 - B. mezenximotositlarning ko‘payishi
 - C. kambial elementlarning ko‘payishi
 - D. miosimplasning reaktiv o‘zgarishi

7. Muskul tuqimalarining asosiy struktur, funksional elementlari?
- A. muskul va kollagen tolalar
 - B. sillik miosit va kardiomosit
 - C. kollagen va elastik tolalar
 - D. muskul tola, kardiomiosit

8. Skelet muskulining kambial elementi hisoblanuvchi, miosimplast bilan birgalikda umumiy kubik, sarkolemmaga o‘ralgan hujayralarga nima deyiladi?
- A. mezenximal hujayra
 - B. kambial hujayra
 - C. makrofag
 - D. miosatellitosit

9. Muskul to‘qimalarining morfo-funksional klassifikatsiyasi?
- A. silliq va ko‘ndalang targ‘il muskul
 - B. sillik va donador muskullar
 - C. sekretor va ko‘ndalang targil muskul
 - D. o‘tkazuvchi va sillik muskulla

10. Yurak muskulining funksional tolasini hosil qiluvchi va bu tolada zanjirsimon joylashgan hujayralar?
- A. sillik muskul hujayralar
 - B. kardiomiositlar
 - C. miosatellitositlar
 - D. mioepitaliositlar

Asosiy adabiyotlar

- 1.** Dilmurodov N.B., Karimov M.G., Normurodova Z.F. «Hayvonlar morfologiysi» fanidan amaliy-laboratoriya mashg‘ulotlar bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2018 yil.
- 2.** Shodiev N.Sh., Dilmurodov N.B. «Sitologiya, gistologiya va embriobiologiya». Toshkent, 2015 yil.
- 3.** Dilmurodov N.B., Eshmatov G.X. «Hayvonlar anatomiysi» fanidan amaliy laboratoriya mashg‘ulotlar bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2018 yil.
- 4.** To‘xtayev Q.R., Azizova F.X., Abduraxmonov M., va b. “Sitologiya, gistologiya va embriobiologiya”. Darslik. Toshkent, 2018 yil.
- 5.** Histology, Cytology, Embryology: Textbook / I. V. Bobrysheva, S. A. Kashchenko. - Lugansk: “Knowledge”, 2012.

Axborot manbaalari

- 1.** www.Ziyonet.uz
- 2.** www.veterinariyameditsinasi.uz